


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik bakalavriat ta'limga yo'nali shining malaka talablari

Toshkent – 2023



ISHLAB CHIQILGAN:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 - yil «7 » 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilar takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik bakalavriat ta’lim yo’nalishining umumiy tavsifi</i>	4
1.1.	<i>Qo’llanish sohasi</i>	4
1.1.1.	<i>60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo’nalishi Malaka talabining qo’llanilishi.....</i>	4
1.1.2.	<i>Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....</i>	4
1.2.	<i>60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsifi</i>	4
1.2.1.	<i>60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....</i>	5
1.2.3.	<i>60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</i>	6
2.1.	<i>Umumi kompetensiyalar.....</i>	6
2.2.	<i>Kasbiy kompetensiyalar.....</i>	7
2.3.	<i>Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egalashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar</i>	9
2.3.1.	<i>Kvalifikatsiya</i>	9
2.3.2.	<i>60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar</i>	10
2.3.3.	<i>60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi</i>	10
	<i>Bibliografik ma’lumotlar</i>	11
	<i>Kelishuv varag‘i</i>	12

1. 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari:

60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo‘nalishi – tillar sohasining yo‘nalishi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institatlari, davlat boshqaruvi organlari, vazirliklar, qo‘mitalar, uyushmalar, fuqarolik jamiyati institatlari, tashkilotlar, ta’lim, ilmiy tadqiqot muassasalari, umumiyo‘rta, o‘rta maxsus, kasbiy ta’limning davlat va nodavlat

muassasalarida, milliy va xalqaro OAVlaridagi kompleks masalalar yechimini qamrab oladi.

1.2.2. 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional (davlat, nodavlat) ta'limi muassasalarida;
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi;
- matbuot va ommaviy axborot vositalari;
- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

1.2.3. 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- ma'naviy-ma'rifiy faoliyat;
- pedagogik faoliyat (umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus ta'limi tizimida);
- tashkiliy-boshqaruv faoliyat.

1.2.4. 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.

60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar (o'qitish metodikasi)ga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ma'lumotlarni jamlash, qayta ishslash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotda qo'llash;
- ilmiy muammolar yechimi natijalarini amaliyotga joriy etish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

- Yoshlar agentligi bilan hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha turli xil tadbirlar o'tkazish;

- O'zbekiston va jahon tarixiga oid manbalardan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy sohada foydalanishni tashkillashtirish;
- umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni o'chib berish.

Pedagogik faoliyat:

- umumiyligi o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid o'quv fanlar bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egalash;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalaniib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni toplash, umumlashtirish va tahlil etish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tatbiq etish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vosita va shakllar masalasida o'z-o'zini muntaзам takomillashtirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- filologik faoliyat sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- pedagogik jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi masalasida ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilishda ishtirok etish.

2. 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiyligi kompetensiyalar:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyat doirasida zaruriy bilimlarga

ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborotlarni to'g'ri ifoda etish asosida mafkuraviy immunitetini shakllantirish borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lish;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;
- o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallah; zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noa'nanaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron o'qitish usullarini egallah, internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usul va vositalariga ega bo'lish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- o'qitishning ilmiy asoslarini tahlil qilib borishi, metodik birlashmalarda umumiyl o'rta ta'lif maktablari va o'rta maxsus ta'lifi mazmunida fanning o'rmini belgilay olishi va uning ilmiy muammolari bo'yicha pedagogik o'qishlarda ma'ruzalar o'qishi, umumiyl o'rta ta'lif maktablari o'quvchilar bilan muloqotda har bir yosh doirasiga psixologik yondoshish va o'rta maxsus ta'lifida differensial ta'lifni yo'lga qo'ya olishi, o'quv jarayoni bilan bog'liq barcha hujjatlarni yurita olish;
- an'anaviy va noan'anaviy metodlar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ixtisoslikka mos fanlarni o'qitish chog'ida tanlay olishi, o'z fanida metod va texnologiyalarni ijodiy qo'llay olishi, faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olish;

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- til va adabiyot fanlarini o'qitishda namunaviy innovatsion texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanish; psixik rivojlanish va uning o'ziga xos xususiyatlari, yosh davrlari tasnifi, psixik taraqqiyotning turli bosqichlari uchun xos psixofiziologik va psixologik xususiyatlarni bilish;
- mustaqil ta'lif va ilmiy-ijodiy qidiruv ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;
- dialektologiya - ijtimoiy lingvistika sohasi ekanligi, tillarning shevalar tizimi, o'zbek tili shevalari hozirgi o'zbek tilining asosi ekanligi, o'zbek shevalarining o'zbek adabiy tili, uning tarixi va boshqa turkiy tillarni o'rganishda boy manba bo'lishi haqida tasavvurga ega bo'lishi, sheva, dialekt, lahja tushunchalari mazmuni, o'zbek tilining murakkab dialektal tarkibi, transkripsion belgilar tizimi, shevalarni o'rganish metodlari, o'zbek shevalarining muhim fonetik, leksik, grammatik

xususiyatlari, o'zbek shevalarida amal qiluvchi fonetik qonunlar, lingvistik geografiya tamoyillari, badiiy asarlardagi dialektizmlarning xususiyatlari, o'zbek shevalarining tasnifini bilishi va ulardan foydalana olishi; transkripsiya yozilgan matnlarni o'qish, sheva vakillari nutqidagi dialektal xususiyatlarni transkripsiya yozib olish, o'zbek shevalarining muhim fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini tushuntirib bera olish, muayyan bir sheva xususiyatlarini tavsif qila olish, uning dialektal tizimdag'i o'mini belgilay olish, pedagogik faoliyatda o'quvchilar nutqidagi dialektal xatolarni ilg'ay olish va bartaraf qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– o'zbek folklorining tarixiy taraqqiyoti, nazariy asoslari, janrlar takomili va ijro jarayonlarini tahlil qilish, folklor namunalarini guruhlash, janrlar ichki tasnifini yaratish va shu asosda tahlil qilish, xalq dostonlarida turkumlik muammosini dostonlar mutolaasi bilan hal qilish, folklor matnlarini o'qiy olish, tahlil qilish, folklor asarlarini ekspeditsiya jarayonida yozib olish, ularning poetik xususiyatlarini tahlil qilish to'g'risida bilimga ega bo'lish;

– o'zbek folklori va dialektologiyasi tarixi, ta'llimoti va nazariyalari, yirik namoyandalari, folklorshunoslik va dialektologiya fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish;

– o'zbek mifologiyasi, folklor dialektologiyasi, folklorshunoslikka kirish, baxshichilik san'ati va dostonchilik maktablari, marosim folklori, o'zbek shevalari matnlarining lingvistik tahlili, o'zbek shevalari korpusi, tarixiy dialektologiya, dialektologiya va etnolingvistika, dialektal leksikografiya, o'zbek shevalari matnlari sintaksi, bolalar folklori, o'zbek tilshunosligi, umumiyl tilshunoslik, qadimgi turkiy til, o'zbek tili va o'zbek adabiyoti tarixi, nazariyasi, jahon adabiyotiga oid bilimlarni egallash, til fanlari, adabiyotning dolzarb masalalarini ilg'ay olish, ilmiy faoliyatda qo'llay bilish va o'quvchilarga yetkaza olish;

– o'zbek mifologiyasi, mifologik asarlari genezisi va tarixiy taraqqiyoti, janrlar va ularning xususiyatlarini aniqlash, janrlararo munosabat mezonlarini belgilash folklorshunoslik nazariyasi, folklor janrlari, xalq og'zaki ijodi genezisi va tarixiy taraqqiyoti, janrlar va ularning xususiyatlarini aniqlash, adabiyot va folklor munosabati haqidagi bilimga ega bo'lish;

– hujjat tili va uslublari haqidagi tasavvurga hamda davlat tilida yoziladigan har qanday huquqiy-me'yoriy hujjatlarni shakllantirish va tahrir qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– badiiy matnning semantik-sintaktik va lingvistik mexanizmlarini, o'zbek dialektal lingvokulturologiyasi, kommunikativ va kognitiv dialektologiya, areal onomastika, o'zbek tilining mohiyati va uning yetakchi vazifalarining namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilish, nutq madaniyati va uslubiyati asoslarini o'rnatish, nutqning lisoniy va nolisoniy, uslubiy meyor, qoidalari bilan tanishtirish; tinglovchilarning madaniy nutq, uslubiyatga oid tasavvur, bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish;

– yangi o'zbek adabiyoti tarixinin taraqqiyot tamoyillari, davr adabiyotini yuzaga keltirgan omillar, qonuniyatlar, o'ziga xos xususiyatlari o'rganish malakasi va bilimiga ega bo'lish; o'zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini

– yangi o'zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot tamoyillari, davr adabiyotini yuzaga keltirgan omillar, qonuniyatlar, o'ziga xos xususiyatlari o'rganish malakasi va bilimiga ega bo'lish; o'zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini belgilash; qiyosiy adabiyoshunoslikning umumnazariy va uslubiy muammolari, o'zbek mumtoz adabiyoti, qiyosiy mifologiya va folklorshunoslik, o'zbek adabiyoti jahon badiiy tafakkuri kontekstida o'rganilishi, o'zbek va jahon adabiy aloqalari, tarjimashunoslik va tarjima tanqidi kabi dolzarb masalalarni yoritish; turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turkman adabiyoti to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish berilib, bu xalqlar adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi, folklori yozma adabiyoti namunalaridan xabardor bo'lish; munaqqidlar, adib-munaqqidlarning faoliyati, adabiy tanqidchilikdagi janrlar va uslublar masalasi tadqiq qilish orqali tanqidiy qarash shakllantirish;

2.3. Umumiyligi va kasbiy kompetensiyalarni egalashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiyligi va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tash hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar - bakalavriat ta'limga yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiyligi va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari - ta'limga yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'limga yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarii mustahkamlash va amaliy jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot — pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: filolog, folklorshunos va shevashunos, ona tili va adabiyot o'qituvchisi

2.3.2. 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4890	163
Tanlov fanlar	1170	39
Malakaviy va pedagogik amaliyotlar	690	23
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15
Jami:	7200	240

2.3.3. 60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiyluklamaning hajmi, soatlarda	Jami kredit	Semestri
		Majburiy fanlar	4890	163	
1.01	AT1105	Axborot texnologiyalari	150	5	1
1.02	XT1105	Xorijiy til (ingliz tili)	150	5	1
1.03	TA1105	Tilshunoslik asoslari	150	5	1
1.04	AA1105	Adabiyotshunoslik asoslari	150	5	1
1.05	O‘F11-210	O‘zbek folklori I, II	300	10	1-2
1.06	HO‘AT11-315	Hozirgi o‘zbek adabiy tili I, II, III	450	15	1-3
1.07	F1204	Falsafa	120	4	2
1.08	DSh1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.09	FShK1205	Folklorshunoslikka kirish	150	5	2
1.10	O‘D12-310	O‘zbek dialektologiyasi I, II	300	10	2-3
1.11	JFA1305	Jahon folklori va adabiyoti	150	5	3
1.12	UP1305	Umumiyluklamaning hajmi, soatlarda	150	5	3
1.13	O‘EYT1404	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	4
1.14	O‘ShMLT1405	O‘zbek shevalari matnlarining lingvistik tahlili	150	5	4
1.15	O‘TT14-510	O‘zbek tili tarixi I, II	300	10	4-5

1.16	O'AT14-615	O'zbek adabiyoti tarixi I, II, III	450	15	4-6
1.17	UP1505	Umumiy pedagogika	150	5	5
1.18	O'TO'M1505	O'zbek tilini o'qitish metodikasi	150	5	5
1.19	O'AO'M1604	O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi	120	4	6
1.20	TD1606	Tarixiy dialektologiya	180	6	6
1.21	YO'A1606	Yangi o'zbek adabiyoti	180	6	6
1.22	O'MI6-710	O'zbek mifologiyasi I, II	300	10	6-7
1.23	MF1705	Marosim folklori	150	5	7
1.24	O'TS1705	O'zbek tili stilistikasi	150	5	7
1.25	FD1705	Folklor dialektologiyasi	150	5	7
2.00		Tanlov fanlari (8 ta fan)	1170	39	3,4,5,7
		Jami	6060	202	
		Malakaviy va pedagogik amaliyotlar	690	23	2,4,6,8
		Yakuniy davlat attestasiyasi	450	15	8
		Jami	1140	38	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekt, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli; folklor dialektologiyasi, folklorshunoslikka kirish, o'zbek shevalari matnlarining lingvistik tahlili, tarixiy dialektologiya, dialektal leksikografiya, bolalar folklori, hozirgi o'zbek tili, lison, nutq, me'yor, qadimgi turkiy til, til tarixi, tarixiy grammatika, tilshunoslik nazariyasi, til va jamiyat, til oilalari, til guruhlari, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, terminologiya, leksikografiya, arab va fors alifbosi, mumtoz adabiyot, adabiy yodgorliklar, navoiyshunoslik, milliy uyg'onish, yangi o'zbek adabiyoti, adabiy tanqid, jahon folklori va adabiyoti, turkiy xalqlar adabiyoti, adabiyotshunoslik, o'qitish metodikasi, matn

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILGAN:

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

M.O'.



Sh.Sirojiddinov

10 » 07

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor Sh.Yakubov
2023 -yil « 10 » 07
M.O'



O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi

Direktor J. Eshonqulov
2023 « 10 » 07
M.O'



O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi O'zbek tili,
adabiyoti va folklori instituti

Direktor N.Mahmudov
2023 -yil « 10 » 07
M.O'.



**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik bakalavriat ta'lif yo'nalishi
malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lif
muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtaida**
KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“10” 07 2023 yil

Biz, quyida imzo chekuvchilar – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori N.Mahmudov, O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi direktori J.Eshonqulov birgalikda ToshDO'TAUDA ishlab chiqilgan quyidagi **60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik bakalavriat ta'lif yo'nalishi** malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60230900 – Folklorshunoslik va shevashunoslik.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 O'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PF-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablар ham inobatga olingan.

Ta'lif yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsija etish mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Sh.Sirojiddinov



O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti direktori

N.Mahmudov



O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi
davlat adabiyot muzeyi direktori

J.Eshonqulov

